

Adabiyotlar

1. Ernazarov G'.N. O'quvchi-yoshlar jismoniy tarbiyasining xududiy xususiyatlari. Uslubiy qo'llanma. – Toshkent: «Umid design», 2022,160-b.
2. Ernazarov G'.N. Jismoniy tarbiyaning ryegional xususiyatlari. O'quv qo'llanma. – Farg'ona: «Poligraf Super Servis», 2023,166-b.
3. Ernazarov G'.N. Jismoniy tarbiyaning ryegional xususiyatlari. Darslik. – Farg'ona: «Poligraf Super Servis», 2024, 223-b.
4. Ernazarov G.N. Physical qualities of students learn. // International journal of social science & interdisciplinary research. ISSN: 2277-3630 Impact factor: 8.036, 2022, 11(12), – P. 150-159.
5. Ernazarov G.N. Various ecological in the circumstances living school of archers physical ability to work and hemodynamic parameters. // International journal of social science & interdisciplinary research. ISSN: 2277-3630 Impact factor: 8.036, 2022, 11(12), – P. 1-8.

REZYUME. Maqolada sportchilarning turli geografik sharoitlarga moslashishi – akklimatizatsiya jarayoni keng yoritiladi. Akklimatizatsiyaning qisqa va uzoq muddatli turlari, shuningdek, o'zbek sportchilarining tog'li hududlarda mashq qilish orqali natijalarini qanday yaxshilagani haqida misollar keltiriladi.

РЕЗЮМЕ. В статье подробно рассматривается процесс акклиматизации спортсменов к различным географическим условиям. Описаны краткосрочные и долгосрочные виды акклиматизации, а также приведены примеры улучшения результатов узбекских спортсменов благодаря тренировкам в горных районах.

SUMMARY. The article examines in detail the process of acclimatization of athletes to various geographical conditions. Short-term and long-term types of acclimatization are described, and examples of improved results are given of Uzbek athletes thanks to training in mountainous areas.

UDK: 378.091.3:339.543

BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA IJTIMOY-MADANIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING TARIXIY ASOSLARI HAMDA IJTIMOY-PEDAGOGIK OMILLARI

N.Xolmirzayev – doktorant

Navoiy davlat universiteti

Tayanch so'zlar: milliy qadriyat, o'z-o'zini anglash, oliy ta'lim, bo'lajak o'qituvchi, kompetensiya, ijtimoiy-madaniy kompetensiya, ijtimoiy faollik, sharq allomalari, ijtimoiy-madaniy kompetensiya komponentlari, ijtimoiy-madaniy kompetensiyani rivojlantirish.

Ключевые слова: национальная ценность, самосознание, высшее образование, будущий учитель, компетентность, социокультурная компетентность, общественная активность, востоковеды, компоненты социокультурной компетентности, развитие социокультурной компетентности.

Key words: national value, self-awareness, higher education, future teacher, competence, socio-cultural competence, social activism, oriental scholars, components of socio-cultural competence, development of socio-cultural competence.

Kirish. Ijtimoiy-madaniy kompetentlik – ijtimoiy-madaniy munosabatlarda faollik ko'rsatish ko'nikma, malakalariga egalik, kasbiy faoliyatda subyektlar bilan muloqotga kirisha olishdir [2]. F.D.Garbovning [3:18] tadqiqotlarida ma'lum bo'lishicha ma'lum sharoitlarda jamoa bo'lib, birgalikda ishlash o'zaro harakatda ishtirok etayotgan guruhning har bir a'zosi shaxsning shakllanishiga imkon beradi. Bu birgalikdagi faoliyat jipslashgan guruhlarda ro'y beradi.

Ijtimoiy – madaniy kompetensiya bo'lajak o'qituvchining ijtimoiy subyekt sifatida ijtimoiy-madaniy faoliyat jarayonida o'z axloqiy imkoniyatini amalga oshirish layoqatidir. Shaxsning xususiyati va uning jo'shqin tuzilmasi bo'lgan ijtimoiy-madaniy kompetensiya turli darajada namoyon bo'ladi [4:3].

Ko'pgina pedagog olimlar ijtimoiy-madaniy kompetensiyani ehtiyojlar, qiziqishlar, maqsad va ideallarga mos ravishda ijtimoiy-madaniy shart-sharoitlarni o'zgartirishga, ijtimoiy innovatsiyalarni ilgari surish va amalga oshirishga, o'zida zaruriy ijtimoiy-madaniy sifatlarni shakllantirishga yo'naltirilgan metodlar, ish tartibining majmui sifatida qabul qiladi [6:8].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Yoshlarda ijtimoiy-madaniy kompetensiya va uning mazmuni, ijtimoiy faollik,

talabalarning ma'naviy-ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik asoslari bo'yicha bir qator olimlar tomonidan tadqiqotlar amalga oshirilgan. Mamlakatimiz tadqiqotchilaridan D.Nafasav [5], Sh.Abdurazakova [1], N.Shayzakova [11] kabilarning ilmiy ishlari, darslik va o'quv qo'llanmalarida ijtimoiy-madaniy kompetentlikni takomillashtirishni tashkil etish, bo'lajak o'qituvchilarning ijtimoiy-madaniy, ijtimoiy-shaxsiy, ijtimoiy-kommunikativ kompetentligini rivojlantirish mazmuni, shakl, metod, vosita hamda texnologiyalari yoritib berilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Sharq allomalarining shaxs ijtimoiy-madaniy kamolotidagi pedagogik qarashlari, shuningdek, bo'lajak o'qituvchilar ijtimoiy-madaniy kompetensiyasini rivojlantirish muammolari bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar mazmunini o'rganish asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Shaxs ijtimoiy – madaniy kamoloti ijtimoiy-madaniy munosabatlar jarayonidagi ishtiroki darajasiga bog'liq bo'lib, uning ijtimoiy borliqqa munosabatini belgilaydi;

2. Bo'lajak o'qituvchilar ijtimoiy-madaniy kompetensiyalarini rivojlantirish shaxs umumiy kamolotini ta'minlash hamda jamiyat ijtimoiy taraqqiyotini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'lsa-da, bugungi

kunga qadar yaxlit pedagogik jarayon sifatida tadqiq etilmagan.

Ushbu muammoning pedagogik aspekti ta'lim va tarbiya jarayonida shaxs ijtimoiy-madaniy kompetensiyasining yanada muvaffaqiyatli rivojlanishiga yordam beradigan sharoitlarni aniqlash va o'rganishni o'z ichiga oladi. Ijtimoiy – madaniy kompetensiya murakkab va integral fazilat bo'lib, u o'zida hayotiy faoliyat sifatlarining butun majmuini ifoda etadi. Ijtimoiy-madaniy kompetensiyani rivojlantirish jarayoni murakkab ijtimoiy hodisa sifatida milliy, diniy, tarixiy, axloqiy va huquqiy omillar bilan uzviy bog'liq. Shu ma'noda, milliy va diniy qadriyatlar nafaqat xalqning falsafiy, tarixiy-ma'naviy merosi, balki barkamol shaxsni tarbiyalash va rivojlantirishning ham muhim omili hisoblanadi.

Ijtimoiy-madaniy kompetensiya subyektning jamoa, guruh va uyushmalar bilan muloqotda bo'lish, atrofidaqilar bilan hamkorlik qilish, tengdoshlari va katta-kichik oldida ma'lum majburiyatlarni ijodiy bajarish, tadbirkorlik ko'rsatish, ijtimoiy hayotni demokratlashtirish va boshqa jarayonlarda faol ishtirok etish malakalarini o'z ichiga oladi. Ijtimoiy-madaniy kompetensiyaning yuqori darajasi insonning shaxsiy takomillashishiga, ya'ni individual rivojlanishi, takomillashishiga yo'nalgan ongli va tizimli faoliyati – o'z-o'zini tarbiya qilishga intilishdir.

Ijtimoiy – madaniy kompetensiya insonda to'satdan shakllanmaydi, balki umri davomida kamol topib bosqichma bosqich shakllanib boradi. Shaxs faoliyati ma'naviy ishlab chiqarish sohasi bilan belgilangan holda ham ongning, ham o'z-o'zini anglashning shakllanishi va namoyon bo'lishini, shuningdek, tafakkur faoliyatini qampab oladi.

Demak, ijtimoiy-madaniy kompetensiya tushunchasiga quyidagicha ta'rif berish mumkin: ijtimoiy-madaniy kompetensiya-shaxsning atrof-muhit, jamiyatda kechayotgan jarayonlarga bo'lgan munosabatlarining integral tizimi bo'lib, uning individual-tipologik va umri davomida shakllanib boruvchi ijtimoiy shartlangan xususiyatlari bilan xarakterlanadi.

Tahlil va natijalar. Bo'lajak o'qituvchilar ijtimoiy-madaniy kompetentligini rivojlantirishning falsafiy, ijtimoiy-siyosiy, diniy, milliy-ma'naviy, pedagogik-psixologik omillarini ko'rsatish mumkin. Jumladan, falsafiy omillar ijtimoiy-siyosiy, milliy-ma'naviy jihatdan tahlil etilganda, u taraqqiyotning "O'zbek modeli", 2017-2021-yillarda O'zbekistonni yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi ijtimoiy kompetensiyani rivojlantirish jihatlari o'z ichiga qamrab oladi. Psixologik omillar intellektual, emotsional va motivatsion soha bilan aloqadorlikda tahlil etilib, motiv, maqsad, his-tuyg'ular, shaxslik sifatlarini o'z ichiga oladi. Pedagogik omillar tarkibiga esa milliy tarbiya, tarbiya paradigmalari, muloqot, axborot madaniyati, ijtimoiylashtirishga tayyorgarlik kabilar kiritiladi. Bo'lajak o'qituvchilar ijtimoiy-madaniy kompetentligini rivojlantirishda o'z-o'zini anglashning yuksak darajasi, fuqarolik, o'zini hurmat qilish, o'z qadriyatini his qilish, intizomlilik, to'g'rilik; ma'naviy qadriyatlarga e'tiborlilik; qarorlar qabul qilishda mustaqillik va ma'suliyatni his qilish, hayotiy faoliyat mazmunini erkin tanlash, mehribonlik, yaxshilik, alturizm,

sabrlilik, chidamlilik, kamtarlik, osoyishtalik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni tushunishga intilish, bilish va o'z-o'zini anglash, go'zallik, muloqot va hayot mazmunini chuqur tushunishga ehtiyoj, refleksiya, ichki dunyo avtonomiyasi, yaxlitlik, rivojlangan qobiliyatlar, yaxshi qo'shnichilik, faoliyat o'zgartiruvchi ilmiy bilimlar, malakalar, ko'nikmalar, iqtisodiyot asoslarini bilish, intellekt, institutsiya, ijodiy hayotga ehtiyoj, tejamkorlik, mehnatsevarlik, chet tillarni o'rganish, milliy va diniy urfodatlarini bilish, sog'lom turmush tarzi, tadbirkorlik, jismoniy toblanish, yaxshi amallar, estetik did, ozodalik, atrof-muhitni obodonlashtirish va oila farovonligini ta'minlash, eruditsiya, kompetentlilik, raqobatbardoshlilik, boshqarish qobiliyati, kirishimlilik, ijodiy professional fikrlash qobiliyati, tarixni, turli xalqlar madaniyatini bilish va hokazo omillarga asoslanish muhim hisoblanadi.

Bo'lajak o'qituvchi ijtimoiy-madaniy kompetensiyasi rivojlanishida uning individualligi namoyon bo'ladi. Oliy ta'lim muassasalari talabalarida ijtimoiy-madaniy kompetensiya, ularning ijtimoiy-siyosiy, mehnat, bilish jarayonlari, kundalik turmush tarzi, muayyan bilimlar hajmi va jamiyatdagi axloq meyorlarini o'zlashtirishi orqali rivojlantirilib boriladi.

Bo'lajak o'qituvchilar ijtimoiy-madaniy kompetentligi o'z oldiga maqsad qo'yish, shijoat, unga erishishda yuqori darajada kuch-g'ayrat, jo'shqinlik bilan faoliyat ko'rsatish va mehnat qilishida namoyon bo'ladi. Chuqur bilim, yetarli malakaga ega bo'lib, jamiyat hayotida o'ziga munosib o'rinni erkin egallash hamda yuqori natija bilan mehnat qilishni ham talab etadi.

Ijtimoiy-madaniy kompetensiyani rivojlantirish mahorat va ishbilarmonlik bilan ko'pgina ehtiyojlarini qondira oladigan bo'lajak mutaxassisni voyaga yetkazishdir [5]. Bu esa zararli va yot g'oyalarga, atrof-muhitga ziyon yetkazuvchilarga qarshi kurashish, jamiyat a'zolariga salbiy ta'sir ko'rsatadigan ijtimoiy, ruhiy, iqtisodiy holatlarning oldini olish, barqarorlik va tinchlikni saqlash xususiyatlarini tarbiyalashga chambarchas bog'liq.

Ijtimoiy-madaniy kompetensiyani rivojlantirish asosida davlat va jamiyatga foydali shaxslarni kamol toptirish, ularni yurt tinchligini saqlashga jalb etish, o'z faoliyatini xalq manfaatlariga yo'naltirish, bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishga erishish, kuchli, adolatli, huquqiy va demokratik jamiyat qurishga bo'lgan xohish-irodasni mustahkamlashni turmush tarzining ajralmas qismiga aylantirish ruhida tarbiyalash vazifalarini amalga oshirish oliy ta'lim muassasalarining asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Bo'lajak o'qituvchilar ijtimoiy-madaniy kompetentligini rivojlantirish, o'z navbatida, mazkur jarayon samaradorligini kafolatlovchi mezonlarni aniqlashtirib olishni taqozo etdi. Bu mezonlar: ijtimoiy-madaniy kompetensiyaning anglanganlik darajasini xarakterlaydigan ijtimoiy-madaniy kompetensiyaning zarur komponentlari sifatida amaliy kasbiy malakalarni egallash darajasi; ijtimoiy-madaniy kompetensiya motivatsiyasining rivojlanish darajasi; mustaqillik va tashabbuskorlik, topqirlik, tadbirkorlikning rivojlanish darajasi kabilardan iborat [8].

Bo'lajak o'qituvchilarda ijtimoiy-madaniy kompetentlikning rivojlanish darajasi ko'rsatkichlari sifatida

atrofdagilariga nisbatan mehribonlik, hozirjavoblik, jamoat ishlarida tashabbuskorlik, oila a'zolari haqida g'amxo'rlik, belgilangan vazifalarni bajarishda qat'iylikning namoyon bo'lishi, mustaqillikni tushunish va unga intilishning mavjudligi, kelgusi faoliyatini rejalashtirishi va rejaga muvofiq harakat qilish malakasi, o'z ishini o'zi nazorat qilish, tahlillash va baholash qobiliyatlarini belgilash mumkin [9].

Mas'uliyatlilik – bu ijtimoiy-madaniy kompetensiyani rivojlantirish mezonlaridan biri bo'lib, bunda bo'lajak o'qituvchining mas'uliyat tuyg'usi bilan yashashi, faoliyat mahsulini to'liq tasavvur qilgan holda o'zi va o'zgalari uchun foyda keltirishini ang'lay olish qobiliyati rivojlanadi. Mas'uliyatni anglagan holda bo'lajak o'qituvchi ishini doimo puxta rejalashtirib, uning sabab-oqibatlarini oldindan tasavvur qila oladi va zarur natijaga erishish uchun butun kuch va salohiyatini safarbar etishga qodir bo'ladi.

Ijtimoiy-madaniy kompetensiyani rivojlantirishda atrof-muhitga yondashuv, ijtimoiy munosabatlarni yo'lga qo'yish, ijtimoiy-ruhiy hodisalarga o'z munosabatini bildirish milliy qadriyatlar mazmunini anglash, chuqur ma'lumotga ega bo'lish, g'oya va nazariyalar mohiyati bilan tanishish orqali hosil qilingan qarash, tasavvur,

hissiyot va e'tiqodlar tizimi tushuniladi. Bo'lajak o'qituvchilar ijtimoiy-madaniy faoliyatini tashkil etish ta'lim-tarbiya jarayoni tashkilotchilarining maqsadli ravishda bilim, iqtidor, ko'nikma, dunyoqarash, shaxsiy qadriyatlar tizimini shakllantirishni nazarda tutadi. Bu tizimni shakllantirish o'qituvchi faoliyati bilan bevosita bog'liq bo'lib, ijtimoiy-pedagogik, umumpedagogik texnologiyalardan foydalanish, uning modulini ishlab chiqish, interfaol metodlarni amalga oshirish muhim o'rin tutadi [10].

Xulosa. Oliy ta'lim muassasalari talabalarida ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirishning yaxlit tizimi – mutaxassislar tayyorlash tizimi; mazmuni, talaba oliy ta'lim muassasasiga qabul qilinib birinchi kursdan kasb tayyorgarligi jarayonida shaxsning shakllanishi, bu boradagi aniq takliflar; aniqlash usuli – oliy ta'lim muassasasi o'qituvchisi tajribasiga asoslangan, asosiy vosita-o'quv-tarbiya jarayonining kasbiy yo'nalishi tavsiflangan bosqichlarni o'z ichiga qamrab olgan modernizatsiya sharoitida ijtimoiy-madaniy kompetensiyani rivojlantirishning zamonaviy, tizimli yondashuvi asosida ijtimoiy-pedagogik moslashuvi modelini ishlab chiqish lozim.

Adabiyotlar

1. Abdurazakova Sh.R. Chet til dunyo manzarasini shakllantirishda ijtimoiy-madaniy lakunalarning didaktik potentsiali (filologik otm 1-2 kurslari). pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). ...dis. avtoreferati – Jizzax: 2021.
2. Родермель Т.А. Феномен компетентности в современном образовании: социокультурный аспект. ... дисс.канд. философ.наук. –Томск: 2011.
3. Ляудис В. Я. Формирование учебной деятельности студентов. – Москва: Изд-во. МГУ, 1989.
4. Мальковская Т.Н. Воспитание социальной активности старших подростков. – Л.: 1974.
5. Nafasov D. Turistik faoliyatda talabalar ijtimoiy-madaniy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). ...dis. avtoreferati. –Chirchiq: 2021.
6. Сперанский В.И. Социальная ответственность личности. Сущность и особенности формирования. – Москва: Изд-во. МГУ, 1987.
7. Зимняя И.А. Ключевые компетенции – новая парадигма результата образования. // «Высшее образование сегодня», 2003. № 5. –С. 12-13.
8. Равен Дж. Компетентность в современном обществе: выявление, развитие и реализация. –Москва: «Когито-центр», 2002.
9. Anderson J. Communication competency in the small group. In R.Cathcart & L Samovar (Eds.), Small group communication, A reader. Dubuque, IA: Wm. Brown. 1988.
10. Hutmacher Walo. Key competencies for Europe. // Report of the Symposium Berne, Switzerland 27-30 March, 1996. Council for Cultural Cooperation (CDCC) // Secondary Education for Europe Strasburg, 1997.
11. Shayzakova N.S. Maktabgacha katta yoshdagi olalarning ijtimoiymadaniy an'analar vositasida badiiy-estetiklayoqatini rivojlantirish pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). ...dis.avtoreferati. – Toshkent: 2022.

РЕЗЮМЕ. Maqolada bo'lajak o'qituvchilarda ijtimoiy-madaniy komretentlikni rivojlantirishning tarixiy asoslari, ijtimoiy-madaniy kompetensiyaning o'rganilishi holati, ijtimoiy-madaniy kompetensiya komponentlari, tarixiy - madaniy, milliy asoslarning o'zaro aloqadorligini ta'minlash va umumlashtirish asosida bo'lajak o'qituvchilarda ijtimoiy - madaniy kompetentlikni rivojlantirishning tarixiy pedagogik omillari tahlil qilingan.

РЕЗЮМЕ. В статье анализируются исторические основы формирования социокультурной компетентности будущих учителей, состояние изученности социокультурной компетентности, компоненты социокультурной компетентности, историко-педагогические факторы формирования социокультурной компетентности будущих учителей на основе обеспечения и обобщения взаимосвязи историко-культурных и национальных начал.

SUMMARY. The article analyzes the historical foundations of the development of socio-cultural competence in future teachers, the state of study of socio-cultural competence, the components of socio-cultural competence, the historical pedagogical factors of the development of socio-cultural competence in future teachers based on ensuring and generalizing the interrelationship of historical, cultural, and national foundations.